

NARXLAR BARQARORLIGINING BUZILISHI VA INFLATSIYA BOSIMI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-bosqich talabasi

Zayniyev Dilshod Husniddin o'g'li

Ilmiy rahbar:

Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich

Iqtisodiyot fanlari doktori professor

Annotatsiya: Mikroiqtisodiyotda narxlarning shakllanish jarayonida bozor muvozanatining buzilishi dolzarb masalalardan biridir. Tezisdan tovar va xizmatlar narxining talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida barqaror muvozanatdan chetlanishi, bu holatning iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar hamda davlat iqtisodiy siyosatiga ta'siri tahlil qilinadi. Narx o'zgarishining asosiy sabablari, bozor segmentatsiyasi, monopoliya va oligopoliya kabi tuzilmalar, ularning raqobat muhiti va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri keng yoritiladi. Shuningdek, inflyatsiya, ishlab chiqarish xarajatlari va aholining real daromad darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali iqtisodiy muvozanatning buzilish mexanizmlari izohlanadi. Tadqiqot natijalari bozor narxlarining o'zgaruvchanligi iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir etuvchi omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mikroiqtisodiyot, narx, talab, taklif, bozor muvozanati, raqobat, inflyatsiya, monopolistik tuzilmalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar iqtisodiy faoliyatning yuragi hisoblanadi. Har qanday tovar, xizmat yoki mehnat resursi bozorida narxlar muvozanatni ta'minlaydi, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi qarorlarini shakllantiradi. Shu sababli narxlarning barqarorligi iqtisodiy tizimning ishonchliligi va barqaror o'sishining asosi sifatida qaratiladi. Ammo narxlar barqarorligining buzilishi, ya'ni inflyatsiya jarayonining kuchayishi, iqtisodiyotda chuqur nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi.

Inflyatsiya — bu iqtisodiyotdagi umumiy narxlar darajasining uzluksiz oʻsishi natijasida pul qadrsizlanishi jarayonidir. Inflyatsiya faqat pul massasining koʻpayishidan iborat emas, balki u iqtisodiy tizimdagi ichki va tashqi muvozanatning buzilishi natijasidir. Iqtisodchilar inflyatsiyani “koʻrinmas soliq” deb ataydilar, chunki u aholi jamgʻarmalarining qiymatini kamaytiradi va real daromadni pasaytiradi.

Inflatsiya turlari: Talab inflyatsiyasi (demand-pull inflation) — bu iqtisodiyotda tovar va xizmatlarga boʻlgan talab ularning taklifidan ortib ketgan holatda yuzaga keladi. Yaʼni, aholining xarid qilish imkoniyatlari oshadi, lekin ishlab chiqarish bunga yetib bormaydi. Natijada, tovarlar yetishmasligi sababli narxlar koʻtariladi. Masalan, davlat tomonidan maosh va pensiyalar oshirilganda, isteʼmol darajasi ortadi, ammo ishlab chiqarish hajmi oʻsha darajada oʻsmasa, talab inflyatsiyasi roʻy beradi.

Taklif inflyatsiyasi (cost-push inflation) — ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi natijasida yuzaga keladi. Bu holat iqtisodiyotda umumiy narxlar darajasining koʻtarilishiga olib keladi. Masalan, neft narxining keskin oshishi transport, ishlab chiqarish va qishloq xoʻjaligi sohalarida xarajatlarni oshiradi. Shuning natijasida oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlar narxi ham ortadi. Shu tariqa, taklif inflyatsiyasi asosan xarajatlarning ortishi, soliqlarning koʻtarilishi, ishchi kuchi haqining keskin oshishi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonning eng yomon tomoni — u koʻpincha ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi. Chunki tannarx oshgan sari korxonalarning foydasi kamayadi, ayrimlari ishlab chiqarishni qisqartiradi. Natijada iqtisodiyotda stagflyatsiya — yaʼni bir vaqtning oʻzida ham inflyatsiya, ham ishlab chiqarish pasayishi yuzaga keladi.

Xarajatlar inflyatsiyasi — bu tur taklif inflyatsiyasiga oʻxshash boʻlib, ishlab chiqaruvchilarning xarajatlari oshganida roʻy beradi. Ishlab chiqarish jarayonidagi resurslar, transport, soliq, yoki import narxlarining oshishi buning sababi boʻladi. Masalan, neft narxining oshishi tufayli transport xarajatlari koʻtariladi va bu barcha mahsulotlar narxiga taʼsir qiladi.

Import qilingan inflyatsiya (imported inflation) — chet davlatlardan olib kiriladigan tovarlar yoki xomashyolarning narxi oshganida vujudga keladi. Masalan, mamlakat boshqa davlatlardan energiya, yoqilg'i yoki oziq-ovqat mahsulotlarini import qilsa va u yerda narxlar oshsa, bu ichki bozorda ham narxlarning ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Kutilmagan inflyatsiya (unexpected inflation) — bu iqtisodiyotda oldindan prognoz qilinmagan, to'satdan yuzaga keladigan narxlar o'sishidir. U odatda siyosiy beqarorlik, tashqi iqtisodiy bosim, tabiiy ofatlar yoki davlatning noto'g'ri pul siyosati tufayli sodir bo'ladi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchilar ham bu kutilgan inflyatsiyani inobatga olib, kelgusida narxlar oshishini kutib, hozirgi mahsulotlarni yuqori narxda sotadilar. Ish beruvchilar ishchilarga yuqori ish haqi to'lashadi, chunki kelajakda yashash xarajatlari ortadi deb o'ylashadi.

Me'yoriy (mo'tadil) inflyatsiya — bu inflyatsiyaning iqtisodiy rivojlanish uchun zarur keltirmaydigan shakli bo'lib, odatda yiliga 5–10% atrofida bo'ladi. Bunday inflyatsiya ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiradi, ish o'rinlarini ko'paytiradi va iqtisodiy faollikni oshiradi. U sog'lom iqtisodiy o'sish davrida yuzaga keladi. Ishlab chiqarish kengayadi, aholi daromadi ortadi, tovar va xizmatlarga talab oshadi, natijada narxlar ham asta-sekin yuqorilaydi. Mo'tadil inflyatsiya iqtisodiyot uchun hatarli emas, aksincha, foydali ham bo'lishi mumkin. Chunki u ishlab chiqaruvchilarni yangi texnologiyalar joriy etishga, sarmoya kiritishga undaydi. Misol uchun, O'zbekistonda so'nggi yillarda 8–10% atrofidagi inflyatsiya darajasi kuzatilgan bo'lib, bu iqtisodiy o'sish bilan birga, mo'tadil holatda saqlanib turibdi.

Shiddatli (gallopiruyushchaya) inflyatsiya — narxlar tez sur'atlarda o'sib boradigan holat bo'lib, yiliga 20–200% gacha oshishi mumkin. Bu davrda odamlar pulga ishonmay qoladi, jamg'arma qilish o'rniga tezroq xarid qilishga harakat qiladi. Natijada, pul aylanishi tezlashadi va narxlar yanada yuqorilaydi. Galopiruvchi inflyatsiyada odamlar pulga ishonmay qo'yadi, jamg'arma qilish o'rniga tovar sotib olishga oshiqadi. Shu sababli narxlar yanada tez ko'tariladi, iqtisodiyotda beqarorlik yuz beradi.

Giperinflyatsiya — eng xavfli tur bo‘lib, narxlar oylik yoki hatto kunlik asosda keskin o‘shib boradi (yiliga 1000% dan ortiq). Pulning qadri deyarli yo‘qoladi, aholi savdoda chet el valyutasidan foydalanishni boshlaydi. Masalan, tarixda Germaniyada 1920-yillarda yoki Zimbabveda 2000-yillarda giperinflyatsiya natijasida pul tizimi butunlay inqirozga uchragan. Giperinflyatsiya sharoitida odamlar milliy puldan voz kechib, chet el valyutasida savdo qilishadi. Iqtisodiyot izdan chiqadi, jamg‘armalar butunlay qadrsizlanadi, ijtimoiy beqarorlik kuchayadi.

Narxlar barqarorligining buzilishi ko‘plab omillar bilan bog‘liq. Eng birinchi omil — bu pul massasining ortib borishidir. Agar davlat iqtisodiyotga haddan tashqari pul chiqarib yuborsa, tovarlar soni o‘zgarmasdan, ularning narxi oshadi. Bu holat klassik monetar nazariya bilan izohlanadi: muomaladagi pul miqdori ortsa, narxlar darajasi ham o‘shadi.

Shuningdek, ishlab chiqarish sohasidagi nomutanosibliklar ham narxlar beqarorligiga olib keladi. Masalan, energiya resurslari, yoqilg‘i, transport xarajatlarining oshishi ishlab chiqaruvchilarning tannarxini ko‘taradi. Ular bu ortiqcha xarajatni iste‘molchiga yuklaydi, natijada umumiy narx darajasi oshadi. Bunday holat taklif inflyatsiyasi deb ataladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham so‘nggi yillarda inflyatsiya bosimi ko‘paygan. Bu holat, bir tomondan, ichki ishlab chiqarish hajmining talabni to‘liq qondira olmasligi, ikkinchi tomondan, import qilinadigan mahsulotlar narxining oshishi bilan izohlanadi. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg‘i, shakar va bug‘doy kabi mahsulotlar importi milliy narxlarning oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Inflyatsiya faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy muammolarga ham olib keladi. Narxlarning doimiy o‘shishi aholining real daromadini pasaytiradi, kambag‘allik darajasini oshiradi va jamiyatda ijtimoiy norozilikni kuchaytiradi. Ayniqsa, belgilangan ish haqi oluvchi qatlamlar inflyatsiyadan eng ko‘p zarar ko‘radi.

Narxlar barqarorligining buzilishi ishlab chiqaruvchilarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadbirkorlar uzoq muddatli reja tuza olmaydi, chunki narxlarning ertangi kunda qanday bo'lishini oldindan bilish qiyinlashadi. Bu esa investitsiya oqimini kamaytiradi. Ishlab chiqarish hajmi pasayadi, natijada iqtisodiy o'sish sekinlashadi.

Inflyatsiya iqtisodiyotda turli shakllarda namoyon bo'ladi. U yengil (3–5% gacha), o'rtacha (10–15%) va yuqori yoki giperinflatsiya (100% dan ortiq) ko'rinishida kuzatiladi. Yengil inflatsiya iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi omil bo'lishi mumkin, ammo yuqori inflatsiya iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Masalan, 1990-yillarda sobiq ittifoq respublikalari, jumladan O'zbekiston ham giperinflatsiyani boshdan kechirdi — bu davrda narxlar bir necha baravar oshib, pul qadri deyarli yo'qolgan edi.

Mikroiqtisodiy tahlilda inflatsiya korxona va iste'molchi o'rtasidagi muvozanatni buzadi. Talab ortib, taklif yetarli bo'lmaganda narxlar tezda oshadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmini qisqa muddatda oshirish imkoniyati bo'lmagani uchun, bu jarayon uzoq davom etadi. Natijada, iqtisodiyotda "issiqlik bosimi" yuzaga keladi — talab yuqori, lekin ishlab chiqarish cheklangan.

Narxlar barqarorligining buzilishi xalqaro bozordagi o'zgarishlardan ham kelib chiqadi. Xorijiy valyuta kursining pasayishi import narxlarini oshiradi. Masalan, milliy valyuta qadrsizlansa, chetdan keltiriladigan xomashyo qimmatlashadi, bu esa ichki narxlarga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, markaziy banklar valyuta siyosatini ehtiyotkorlik bilan yuritishadi.

Inflyatsiya shuningdek, kutishlar orqali ham yuzaga keladi. Agar aholining o'zi kelajakda narxlar oshishiga ishonch hosil qilsa, ular bugunoq ko'proq xarid qilishadi, bu esa o'z navbatida talab inflatsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli inflatsion kutilmalarni boshqarish ham muhim omil sanaladi.

Iqtisodiyotda narxlar beqarorligi bandlik darajasiga ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish hajmi pasaygan sari korxonalar ish o'rinlarini qisqartiradi, natijada ishsizlik ortadi. Shu bois, inflyatsiya va ishsizlik o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligi "Filips egri chizig'i" orqali ifodalanadi. Biroq uzoq muddatda bu bog'liqlik doimiy emas, chunki inflyatsiya barqaror ravishda oshsa, bandlik darajasi ham pasayadi.

Narxlar beqarorligining uzoq muddatli oqibatlari iqtisodiyot uchun yanada xavflidir. Real sektor rivojlanishi to'xtaydi, investitsiya muhiti yomonlashadi, milliy valyuta ishonchini yo'qotadi. Bu holat iqtisodiy tanazzulga olib kelishi mumkin. Shu sababli, inflyatsiya darajasini nazorat qilish — davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

O'zbekiston hukumati va Markaziy banki oxirgi yillarda narxlar barqarorligini saqlash bo'yicha qator choralar ko'rmoqda. Pul-kredit siyosatini qat'iylashtirish, foiz stavkalarini tartibga solish va byudjet xarajatlarini optimallashtirish bu yo'nalishda muhim qadamlardir. Shuningdek, milliy ishlab chiqarishni kengaytirish, importga qaramlikni kamaytirish ham inflyatsiya bosimini yumshatadi.

Xulosa qilib aytganda, narxlar barqarorligi iqtisodiyotning asosiy tayanchi hisoblanadi. Narxlar beqarorligi inflyatsiya bosimini kuchaytiradi, bu esa iqtisodiy o'sish, bandlik va aholi farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya natijasida pul qadrsizlanadi, real daromad kamayadi va ishlab chiqarish jarayonida noaniqlik kuchayadi. Shu sababli, davlat siyosati inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish, narxlar barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy ishonchni oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev.

"Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
“Inflyatsion targetlash siyosati bo‘yicha yillik hisobot”, 2023-yil. – www.cbu.uz
3. Mankiw, N. Gregory.
“Principles of Microeconomics” (8th Edition). – Boston: Cengage Learning, 2020.
4. Samuelson, P. A., Nordhaus, W. D.
“Economics” (19th Edition). – New York: McGraw-Hill Education, 2019.
5. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
“Mikroiqtisodiyot: darslik”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
6. Krugman, P., Wells, R.
“Microeconomics” (6th Edition). – New York: Worth Publishers, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
“O‘zbekiston iqtisodiyotining 2024-yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari” hisobotidan. – www.mf.uz